

Date: 3<sup>rd</sup> April-2026

PEDAGOGIK QOBILIYATLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI  
AHAMIYATI

**Ismoilova Marhabo Hamitovna**

TAFU Pedagogika kafedrası

katta o'qituvchisi

e-mail: [marhaboi576@gmail.com](mailto:marhaboi576@gmail.com)

**Qoraboyeva Manzura**

pedagogika va psixalogiya yo'nalish

talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogik qobiliyat tushunchasi, uning psixologik-pedagogik mazmuni hamda ta'lim jarayonidagi o'rni keng yoritilgan. Pedagogik qobiliyatlarning asosiy turlari tahlil qilinib, xususan empatiya va perseptiv qobiliyatlarning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tashkilotchilik, bilish va anglash qobiliyatlarining pedagogik jarayondagi vazifalari, ularning o'zaro bog'liqligi va ta'lim samaradorligiga ta'siri atroflicha tahlil qilingan. Maqolada pedagog shaxsining kasbiy yetukligini shakllantirishda pedagogik qobiliyatlarning tutgan o'rni ilmiy-nazariy asosda yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik qobiliyat, empatiya, perseptiv qobiliyat, tashkilotchilik qobiliyati, bilish qobiliyati, anglash qobiliyati, pedagogik mahorat, ta'lim jarayoni.

**Abstract:** This article extensively covers the concept of pedagogical ability, its psychological and pedagogical content, and its role in the educational process. The main types of pedagogical abilities are analyzed, in particular, the significance of empathy and perceptual abilities in the teacher's activity is revealed. Also, the tasks of organizational, cognitive, and cognitive abilities in the pedagogical process, their interrelationship, and their influence on the effectiveness of education are comprehensively analyzed. The article highlights, on a scientific and theoretical basis, the role of pedagogical abilities in the formation of the professional maturity of the teacher's personality.

**Keywords:** pedagogical ability, empathy, perceptive ability, organizational ability, cognitive ability, comprehension ability, pedagogical skill, educational process.

**Kirish:** Bugungi globallashuv va ta'lim tizimidagi islohotlar sharoitida pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Endilikda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yo'naltiruvchi, motivator va shaxs rivojiga ta'sir etuvchi muhim subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli pedagogning kasbiy faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan uning shaxsiy va kasbiy qobiliyatlariga bog'liqdir. Pedagogik qobiliyatlar o'qituvchining o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi, ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishi, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'sir ko'rsata olishi uchun muhim asos hisoblanadi. Pedagogik qobiliyatlar yetarli darajada rivojlanmagan taqdirda, o'qituvchi bilimli bo'lsa ham, ta'lim jarayonida kutilgan natijaga erishish qiyinlashadi.



Date: 3<sup>rd</sup> April-2026

Mazkur maqolada pedagogik qobiliyatlarning mohiyati, ularning asosiy turlari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan keng yoritiladi.

Pedagogik qobiliyat — bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilar shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatish va kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish imkonini beruvchi individual-psixologik xususiyatlar majmuasidir.

Pedagogik qobiliyatlar tug'ma va orttirilgan jihatlarning uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Ayrim shaxsiy sifatlar tabiiy ravishda mavjud bo'lsa-da, pedagogik qobiliyatlarning asosiy qismi ta'lim, tajriba va o'z ustida ishlash jarayonida rivojlanadi. Shuning uchun pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish uzluksiz jarayon hisoblanadi.

Pedagogik qobiliyatlar o'qituvchining: o'quvchilarni tushunishi, ta'lim jarayonini boshqarishi, pedagogik vaziyatlarga moslashishi, kasbiy muammolarni hal qila olishi kabi jihatlarda namoyon bo'ladi.

Pedagogik qobiliyatlardan empatiya muhim psixologik qobiliyatlardan biri bo'lib, o'qituvchining o'quvchining ichki kechinmalarini, hissiy holatini va ruhiy ehtiyojlarini chuqur anglay olishida namoyon bo'ladi. Empatik yondashuv pedagogga o'quvchining nafaqat bilim darajasini, balki uning ruhiy holati, kayfiyati va darsga bo'lgan munosabatini ham hisobga olish imkonini beradi.

Pedagogik empatiya o'qituvchining o'quvchilarga nisbatan mehribonlik, sabr-toqat va tushunish bilan munosabatda bo'lishida ifodalanadi. Empatiya qobiliyati rivojlangan o'qituvchi o'quvchini tanqid qilishdan ko'ra, uni tushunishga va qo'llab-quvvatlashga intiladi. Bu holat o'quvchilarda psixologik himoyalanganlik hissini kuchaytiradi va ularning shaxs sifatida erkin rivojlanishiga xizmat qiladi.

Empatiya pedagogik jarayonda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida ishonchli munosabatni shakllantiradi;
- o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi;
- ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratadi;
- tarbiyaviy ta'sirning samaradorligini kuchaytiradi.

Shuni ta'kidlash joizki, empatiya faqat hissiy tushunish bilan cheklanmaydi. U pedagogning professional sezgirligi bilan uyg'unlashib, ta'lim jarayonini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etishga yordam beradi.

Perseptiv qobiliyatlar pedagogning o'quvchilarni tashqi xulq-atvori, mimikasi, jestlari, nutqi va emotsional reaksiyalari orqali idrok eta olish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat o'qituvchiga o'quvchilarning ichki holatini so'zsiz belgilar orqali aniqlash imkonini beradi. Perseptiv qobiliyatlar rivojlangan pedagog sinfdagi umumiy psixologik muhitni tez va aniq baholay oladi. Masalan, o'quvchilarning e'tibori susayganini, charchaganini yoki darsga qiziqishi pasayganini o'z vaqtida sezadi. Natijada pedagog dars uslubini o'zgartiradi, faol metodlardan foydalanadi yoki psixologik tanaffus tashkil etadi.

Perseptiv qobiliyatlar quyidagi jihatlarda muhim ahamiyat kasb etadi:

- o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlashda;
- pedagogik muammolarni erta bosqichda aniqlashda;
- ta'lim jarayonini moslashuvchan tashkil etishda;



Date: 3<sup>rd</sup> April-2026

- empatiya qobiliyatini to'ldirish va kuchaytirishda.

Perseptiv qobiliyat empatiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular birgalikda pedagogik muloqotning samaradorligini ta'minlaydi.

Tashkilotchilik qobiliyati pedagogik faoliyatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'qituvchining ta'lim jarayonini samarali rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish imkoniyatlarini belgilaydi. Ushbu qobiliyat pedagogning nafaqat dars jarayonida, balki sinfdan tashqari faoliyatlarda ham yetakchilik qila olishida namoyon bo'ladi. Tashkilotchilik qobiliyati rivojlangan pedagog dars jarayonini aniq maqsad asosida olib boradi, ta'lim mazmunini o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtiradi hamda vaqtni oqilona taqsimlay oladi. Bunday pedagog sinfdagi tartib-intizomni majburlash orqali emas, balki o'quvchilarda mas'uliyat hissini shakllantirish orqali ta'minlaydi. Tashkilotchilik qobiliyatining muhim jihatlaridan biri — jamoani boshqarish va yo'naltira olishdir. O'qituvchi o'quvchilarni jamoaviy faoliyatga jalb etish orqali ularda hamkorlik, o'zaro hurmat va mas'uliyat kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu jarayonda pedagog o'quvchilarni umumiy maqsad sari birlashtiradi va ularning faolligini oshiradi.

Shuningdek, tashkilotchilik qobiliyati pedagogning: dars va tarbiyaviy tadbirlarni puxta rejalashtirishida; o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda; pedagogik jarayonni tizimli va izchil olib borishda; muammoli vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qilishida namoyon bo'ladi. Tashkilotchilik qobiliyati rivojlangan pedagog ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanadi, o'quvchilarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi va ularning yetakchilik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada ta'lim jarayoni samarali va mazmunli kechadi.

Bilish qobiliyati pedagogik faoliyatning ilmiy va intellektual asosini tashkil etadi. Ushbu qobiliyat pedagogning o'z fanini puxta egallashi, ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi va bilimlarni o'quvchilarga mantiqiy, tizimli hamda tushunarli tarzda yetkazib bera olishida namoyon bo'ladi. Bilish qobiliyati faqat nazariy bilim bilan cheklanmay, pedagogning tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Bilish qobiliyati rivojlangan pedagog ta'lim jarayonida bilimlarni tayyor shaklda berish bilan kifoyalanmaydi, balki o'quvchilarni mustaqil izlanishga, fikrlashga va xulosa chiqarishga yo'naltiradi. Bunday yondashuv o'quvchilarning bilimni ongli ravishda o'zlashtirishiga yordam beradi hamda ularning intellektual salohiyatini oshiradi.

Pedagogning bilish qobiliyati quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi: o'quv materialini ilmiy asosda tushuntira olishida; fanlararo bog'liqlikni ochib berishda; zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishda; o'quvchilarning savollariga aniq va asosli javob bera olishida.

Shuningdek, bilish qobiliyati pedagogning o'z ustida muntazam ishlashi, kasbiy rivojlanishga intilishi va ta'lim sohasidagi yangiliklarni doimiy o'rganib borishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bilish qobiliyati kuchli bo'lgan o'qituvchi o'quvchilarda fanga nisbatan barqaror qiziqish uyg'ota oladi va ularni ilmiy dunyoqarashga yo'naltiradi.

Anglash qobiliyati pedagogning o'quvchilarning individual imkoniyatlari, bilim darajasi, psixologik holati va o'zlashtirish tezligini to'g'ri baholay olishida namoyon



Date: 3<sup>rd</sup> April-2026

bo'ladi. Ushbu qobiliyat pedagogik jarayonda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish uchun muhim asos hisoblanadi. Anglash qobiliyati rivojlangan pedagog har bir o'quvchini alohida shaxs sifatida qabul qiladi va ularning qobiliyatlari, qiziqishlari hamda ehtiyojlarini inobatga olgan holda yondashuvni tanlaydi. Natijada ta'lim jarayoni barcha o'quvchilar uchun teng va samarali bo'lishiga erishiladi.

Anglash qobiliyatining pedagogik faoliyatdagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash;
- individual va differensial yondashuvni amalga oshirish;
- o'quvchilarning qiyinchiliklarini o'z vaqtida aniqlash;
- pedagogik ta'sir vositalarini moslashtirish.

Anglash qobiliyati pedagogga o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish, ularning muvaffaqiyat va kamchiliklarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, anglash qobiliyati empatiya va persektiv qobiliyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning uyg'unligi pedagogning kasbiy mahoratini yanada yuksaltiradi. Anglash qobiliyati yetarli darajada rivojlangan pedagog o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va ularning shaxs sifatida kamol topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi

Xulosa qilib aytganda, pedagogik qobiliyatlar pedagog shaxsining kasbiy yetukligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati nafaqat o'qituvchining bilim darajasiga, balki uning empatiya, persektiv, tashkilotchilik, bilish va anglash qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligiga ham bevosita bog'liqdir.

Empatiya va persektiv qobiliyatlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida sog'lom psixologik muhitni shakllantirsa, tashkilotchilik qobiliyati ta'lim jarayonining tartibli, maqsadga yo'naltirilgan va samarali olib borilishini ta'minlaydi. Bilish qobiliyati pedagogik jarayonning ilmiy asosini mustahkamlasa, anglash qobiliyati esa ta'limni shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil etish imkonini beradi.

Mazkur qobiliyatlarning uyg'un rivojlanishi pedagogning kasbiy mahoratini yuksaltiradi, o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ta'lim sifati yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shu sababli pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish pedagog kadrlar tayyorlash jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Davletshin M. Pedagogik psixologiya. – Toshkent.
2. G'oziyev E. Psixologiya. – Toshkent.
3. Karimova V. Pedagogik mahorat asoslari.
4. Abdullayeva M. Ta'lim psixologiyasi.
5. Umumiy pedagogika va psixologiya bo'yicha o'quv qo'llanmalar.
6. Ismoilov, R. (2018). *Pedagogik qobiliyatlar nazariyasi*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.



Date: 3<sup>rd</sup> April-2026

7. Sultonova, M. (2020). *Maktab pedagoglari va empatiya qobiliyati*. Toshkent: Fan va Ta'lim.
8. Karimov, A. (2019). *O'quvchilarni tashkilotchilik qobiliyatlari orqali rivojlantirish*. Samarkand: SamDU nashriyoti.
9. Toshpulatov, S. (2017). *Bilish va anglash qobiliyatlarini o'rgatish metodlari*. Toshkent: Pedagogika.
10. Qodirova, N. (2021). *Perseptiv qobiliyatlari va pedagogik muvaffaqiyat*. Toshkent: Ilmiy nashrlar.
11. Ahmedov, J. (2022). *O'quv jarayonida pedagogik empatiya va uning samaradorligi*. Toshkent: Fan va Ma'rifat.
12. Rashidov, F. (2018). *Tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi*. Buxoro: BuxDU nashriyoti.
13. Saidova, L. (2020). *Bilish va anglash jarayonlarida interaktiv metodlardan foydalanish*. Toshkent: Pedagogika va Psixologiya.
14. Jalolov, M. (2019). *Empatiya va pedagogik kommunikatsiya*. Namangan: NamDU nashriyoti.

